

5/2025,  
sentyabr-  
oktyabr  
(№ 00079)



## MINTAQALARDA TABIIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH MODELI

**Raxmonov Norim Razzakovich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar departamenti rahbari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol13\\_iss5/742](https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss5/742)

### **Annotatsiya**

Maqolada mintaqalarda tabiiy resurslardan samarali foydalanishning nazariy asoslari va amaliyotdagi dolzarb muammolari tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida resurs salohiyatini baholash, uning iqtisodiy aylanmaga jalb etilishi, barqaror rivojlanish mexanizmlari hamda “yashil iqtisodiyot” tamoyillari asosida hududiy resurslarni boshqarishning optimal modeli taklif etilgan. Xorijiy mamlakatlar tajribasi, xususan, resurslar ko'pligini samarali iqtisodiy drayverga aylantirgan Kanada, Finlyandiya va Koreya tajribalari qiyosiy o'rganilgan. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda raqamli monitoring, ekologik cheklovlar va institutsional islohotlarni kuchaytirishning ahamiyati ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** tabiiy resurslar, mintaqaviy rivojlanish, yashil iqtisodiyot, resurs salohiyati, barqaror boshqaruv, ekologik monitoring, resurs samaradorligi.

### **МОДЕЛЬ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ В РЕГИОНАХ**

**Рахмонов Норим Раззакович**

руководитель Департамента по делам молодежи и духовно-просветительской работы Ташкентского государственного экономического университета, доктор экономических наук, профессор

### **Аннотация**

В статье анализируются теоретические основы и практические проблемы эффективного использования природных ресурсов на региональном уровне. Рассматриваются механизмы оценки ресурсного потенциала, его интеграции в экономический оборот, принципы устойчивого развития и элементы «зелёной экономики». Особое внимание уделено опыту Канады, Финляндии и Южной Кореи в эффективной трансформации ресурсного потенциала в фактор экономического роста. На основе зарубежного опыта предложена оптимальная модель управления региональными природными ресурсами с учётом цифрового мониторинга и институциональных реформ.

**Ключевые слова:** природные ресурсы, региональное развитие, зелёная экономика, ресурсный потенциал, устойчивое управление, экологический мониторинг, эффективность ресурсов.

### **A MODEL FOR THE EFFICIENT USE OF NATURAL RESOURCES IN THE REGIONS**

**Rakhmonov Norim Razzakovich**

Head of the Department for Youth Affairs and Spiritual-Enlightenment Work at Tashkent State University of Economics, Doctor of Economics, Professor.

**Abstract**

This article analyzes the theoretical foundations and practical challenges of efficient natural resource management at the regional level. It examines mechanisms for assessing resource potential, integrating it into economic circulation, and ensuring sustainable development based on green economy principles. By studying international practices, including those of Canada, Finland, and South Korea, the paper proposes an optimal model for regional natural resource governance. Special attention is given to the role of digital monitoring systems, environmental regulations, and institutional improvements in enhancing resource efficiency and maintaining long-term regional economic stability.

**Keywords:** natural resources, regional development, green economy, resource potential, sustainable management, ecological monitoring, resource efficiency.

**Kirish**

Mintaqalarda tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalasi har qanday hududning iqtisodiy barqarorligi, sanoat salohiyati va ijtimoiy farovonligining asosiy ustuni hisoblanadi. Tabiiy resurslar tarkibi, miqdori va sifatining hududdan-hududga farq qilishi, ulardan foydalanish mexanizmlarini ham turlicha yo'naltirishni talab qiladi. SHu bois, resurslarga boy hududlar iqtisodiy yuksalish nuqtasiga tezroq chiqishi mumkin bo'lsa-da, samarasiz boshqaruv, texnologik ortda qolish va ekologik inqirozlar bunday afzallikni yo'qqa chiqarishi mumkin. Resursi cheklangan mintaqalar esa innovatsion yondashuvlar, resurs tejoychi texnologiyalar va oqilona boshqaruv orqali yuqori samaraga erishishi mumkin.

O'zbekistonda keyingi yillarda suv resurslarini qayta taqsimlash, yer fondidan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, mineral-xomashyo bazasini modernizatsiya qilish bo'yicha muhim qadamlar qo'yilmoqda. Biroq hududlarda institutsional zaiflik, resurslarni hisobga olish va monitoring tizimining yetarlicha raqamlashtirilmagani, innovatsion texnologiyalar joriy etish darajasining pastligi samaradorlikni cheklab turibdi. Bunday sharoitda tabiiy resurslardan samarali foydalanish modelini har bir hudud uchun alohida ishlab chiqilishi va unda resurs potentsiali, demografik bosim, iqtisodiy tuzilma, ekologik barqarorlik va texnologiyalar darajasi hisobga olinishi zarur. Buning uchun hududiy resurs balansini tuzish, raqamli monitoring tizimlarini joriy etish, suv-energiya tejoychi texnologiyalarni ommalashtirish, mineral resurslarni qayta ishlash zanjirini chuqurlashtirish va ekosistema xizmatlarining iqtisodiy qiymatini baholash kabi vazifalar ustuvor ahamiyatga ega. Natijada, tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali hududlarda iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va milliy raqobatbardoshlikni oshirish imkoni yaratiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

Tabiiy resurslar iqtisodiyoti sohasidagi nazariy asoslar avvalambor klassik iqtisodchilar A.Smit va D.Rikardoning asarlarida resurslar qiymati, yer rentasi va tabiiy omillarning iqtisodiy tarkibdagi o'rni bilan shakllantirilgan [1]. Keyinchalik M.Fridmanning bozor mexanizmlari va resurslar taqsimotiga oid qarashlari bilan bozor samaradorligi orqali resurslardan foydalanishni optimallashtirish olg'a surilgan [2]. Zamonaviy tadqiqotlarda esa P.Semyuelson tabiiy resurslarning iqtisodiy aylanmadagi rolini makroiqtisodiy muvozanat kontekstida yoritgan [3]. J.Stiglits ilmiy ishlarida resurslar samaradorligi, resurslar ustidan

davlat nazorati va ekologik xarajatlarning iqtisodiy oqibatlarini tahlil qilgan [4]. M.Porterning asarida resurslardan foydalanishda raqobatbardoshlikni ta’minlovchi klaster modellari asoslangan [5]. E.Ostrom tabiiy resurslar umumiy mulk sifatida boshqarilganda yuzaga keladigan instituttsional muammolarni ilmiy asosda tushuntirgan [6]. T.Saks esa resurslarni barqaror boshqarish, ekologik cheklanishlar va uzoq muddatli o’sish o’rtasidagi muvozanatni belgilab bergan [7]. Ushbu xorijiy tadqiqotlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, tabiiy resurslar samaradorligi faqat iqtisodiy ko’rsatkichlar bilan emas, balki ekologik barqarorlik, instituttsional muhit va texnologik innovatsiyalar bilan uzviy bog’liq. SHuning uchun mintaqalarda resurslardan foydalanish modeli ham iqtisodiy, ham ekologik talablarni qamrab olgan integral yondashuv asosida ishlab chiqilishi zarur.

O’zbekiston iqtisodiyotining hududiy resurslarini samarali boshqarish va ekologik cheklovlar doirasida iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash masalalariga qaratilgan. Hududiy resurslar samaradorligi nafaqat iqtisodiy foyda va rivojlanish potentsiali bilan bog’liq, balki ularni ekologik barqarorlikni ta’minlaydigan tartibda taqsimlash va boshqarish bilan ham bog’liqdir.

Mamlakatimiz olimlari bu yo’nalishda tizimli tahlil olib borib, resurslardan foydalanishning iqtisodiy va instituttsional modellarini ishlab chiqqanlar. A.Rahmonov, B.Xalilov, O.Salimov, T.Jo’raev va G.Yusupovning ishlari shu sohadagi asosiy yangiliklardan hisoblanadi. Ular hududiy resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini, ekologik cheklovlarning iqtisodiy oqibatlarini hamda davlat va instituttsional institutlar orqali resurslar taqsimotini tahlil qilganlar. Bu tadqiqotlar nafaqat amaliyotda resurslardan iqtisodiy samarali foydalanish imkoniyatlarini belgilashga, balki ularni uzoq muddatli rivojlanish va ekologik barqarorlikni ta’minlaydigan modellarni yaratishga ham yordam beradi [8].

Yuqoridagi tadqiqotlar hududiy resurslar iqtisodiyoti va ekologik cheklovlar masalasini majmual va tizimli tahlil qilishga xizmat qiladi. Ular orqali resurslardan foydalanishni optimallashtirish, iqtisodiy va ekologik maqsadlarni muvofiqlashtirish hamda hududiy rivojlanish strategiyalarini shakllantirish imkoniyatlari ochilmoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tizimli tahlil asosida hududiy resurslar salohiyati komponentlar bo’yicha baholandi, ya’ni yer, suv, energetika va tabiiy resurslarning iqtisodiy va ekologik jihatdan samaradorligi tahlil qilindi. Bu yondashuv resurslardan foydalanishning barqarorligi va uzoq muddatli rivojlanish uchun muhim omillarini aniqlash imkonini berdi. Statistik ma’lumotlar dinamikasi va qiyosiy tahlil usuli orqali hududlar o’rtasida resurslardan foydalanishdagi tendentsiyalar va o’zgarishlar tahlil qilindi. SHu bilan birga, xorijiy mamlakatlar tajribasini komparativ tahlil qilish orqali milliy resurs siyosati va boshqaruv usullari xorijiy amaliyot bilan solishtirildi. Ekspert fikrlari va me’yoriy-huquqiy tahlillar esa tadqiqot natijalarini amaliy jihatdan ilmiy asoslash imkonini berdi.

### **Tahlil va natijalar**

O’zbekiston hududlarida tabiiy resurslarning tarqalishi katta asimmetriyaga ega bo’lib, bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Suv resurslari asosan Sirdaryo va Amudaryo havzasida jamlangan bo’lib, suv ta’minoti va qishloq xo’jaligi faoliyatining geografik jihatdan noteng taqsimotini keltirib chiqaradi. Mineral xomashyo asosiy ravishda Navoiy, Qoraqalpog’iston va Toshkent viloyatida yig’ilgan, bu esa sanoat korxonalari va qayta ishlash sanoatini mahalliy darajada shakllantirish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi yerlari esa asosan vodiy hududlarida zich joylashgan bo'lib, ularning samarali foydalanishi suv ta'minoti va yerlarning darajasiga bevosita bog'liq.

Bunday resurslar asimmetriyasi hududiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda differentsial yondashuvni talab qiladi. Ya'ni, har bir hududning resurslar salohiyati, infratuzilma imkoniyatlari va ekologik xolati asosida individual rivojlanish modellari ishlab chiqilishi lozim. Buning natijasida resurslardan samarali foydalanish, iqtisodiy qiymatni oshirish va ekologik xavflarni kamaytirishga erishish mumkin.

Tahlillar ko'rsatmoqdaki, hududiy resurslardan foydalanishda bir qator jiddiy muammolar mavjud. Birinchidan, resurslarni qiymat zanjirida yuqori bosqichda qayta ishlash darajasi past bo'lib, ko'p hollarda xomashyoni eksport qilish yoki minimal qayta ishlash bilan cheklanadi. Bu esa milliy iqtisodiyot uchun qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatini kamaytiradi. Ikkinchidan, resurs iste'molida isrofgarchilik ko'rsatkichlari yuqori bo'lib, suv va energiya resurslari samarali foydalanilmayapti. Bu omil uzoq muddatli rivojlanish uchun xavf tug'diradi. Uchinchidan, suv va yer resurslarini raqamli monitoring qilish jarayonlari yetarlicha rivojlantirilmagan. Bu holat, resurslardan samarali foydalanishni rejalashtirish va ekologik xavflarni nazorat qilishni qiyinlashtiradi. To'rtinchidan, ekologik cheklovlar mexanizmlari amalda zaif bo'lib, ular resurslarning barqaror boshqaruvini ta'minlay olmaydi. Bu esa hududlarda atrof-muhit va iqtisodiy rivojlanishning uyg'unligini ta'minlashda muammolar tug'diradi. Beshinchidan, korxonalarda resurs samaradorligini oshirish bo'yicha texnologik yangilanishlar sust kechmoqda. Bu holat yuqori qiymatli qayta ishlashni rivojlantirishni, shuningdek resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta'minlashni qiyinlashtiradi. SHuningdek, texnologik innovatsiyalar sustligi hududlar o'rtasida resurslardan foydalanishdagi samaradorlikni tengsiz qiladi va barqaror rivojlanish strategiyalarini amalga oshirishda to'siq bo'ladi (1-jadval).

**1-jadval**

**O'zbekiston tabiiy resurslardan foydalanish muammolari va ularning iqtisodiy-ekologik oqibatlarini [9]**

<b>Muammo tavsifi</b>	<b>Iqtisodiy-ekologik oqibatlar</b>
Resurslarni qiymat zanjirida yuqori bosqichda qayta ishlash darajasi past, ko'p hollarda xomashyo eksport qilinadi yoki minimal qayta ishlash bilan cheklanadi.	Milliy iqtisodiyot uchun qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyati kamayadi, sanoat rivojlanishi sekinlashadi.
Resurs iste'molida isrofgarchilik ko'rsatkichlari yuqori, suv va energiya resurslari samarali foydalanilmaydi.	Uzoq muddatli rivojlanish uchun xavflar paydo bo'ladi, resurslar sarfini kamaytirish zarurligi tug'iladi.
Suv va yer resurslarini raqamli monitoring qilish jarayonlari yetarlicha rivojlantirilmagan.	Resurslardan samarali foydalanishni rejalashtirish va ekologik xavflarni nazorat qilish qiyinlashadi.
Ekologik cheklov mexanizmlari amalda zaif.	Resurslarning barqaror boshqaruvini ta'minlash qiyinlashadi, hududlarda atrof-muhit va iqtisodiy rivojlanishning uyg'unligi buziladi.
Korxonalarda resurs samaradorligini oshirish bo'yicha texnologik yangilanishlar sust kechmoqda.	Yuqori qiymatli qayta ishlashni rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy raqobatbardoshlikni ta'minlash qiyinlashadi, hududlar o'rtasida samaradorlik tengsizligi paydo bo'ladi.

Shu tariqa, O‘zbekistonda resurslardan foydalanishdagi asosiy muammolar – past qayta ishlash darajasi, isrofgarchilik, monitoringning cheklanganligi, ekologik mexanizmlarning zaifligi va texnologik yangilanishlar sustligi hududiy rivojlanish strategiyasini qayta ko‘rib chiqish va samarali boshqaruv modellarini joriy qilishni taqozo qilmoqda. Bu esa nafaqat iqtisodiy rivojlanishni, balki ekologik barqarorlik va resurslardan uzoq muddatli foydalanishni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tajribalarda tabiiy resurslardan samarali foydalanish va barqaror rivojlanishga erishish uchun turli mamlakatlar o‘zlariga xos modellar yaratgan. Bu modellar resurslardan maksimal iqtisodiy samara olish, ekologik xavflarni minimallashtirish va uzoq muddatli rivojlanishni ta‘minlashga qaratilgan. Ular orasida Kanada, Finlyandiya va Koreya modellari eng samarali va ilg‘or sanaladi.

Kanada modeli asosan resurslardan yuqori qiymatli qayta ishlash orqali foydalanishga qaratilgan. Bu modelda xom ashyoni faqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri eksport qilish o‘rniga, uning qiymatini oshiruvchi ishlab chiqarish jarayonlariga yo‘naltirish orqali iqtisodiy samara maksimalashtiriladi. Masalan, keng tabiiy resurslarga ega bo‘lgan Kanadada yog‘och, metall va neft mahsulotlari xom ashyodan tayyor mahsulotlar va texnologiyali tovarlarga aylantiriladi, bu esa milliy iqtisodiyot uchun katta daromad manbasi yaratadi. SHu bilan birga, bu model ekologik standartlar va resurslarning barqarorligini hisobga olish bilan bog‘liqdir [10].

Finlyandiya modeli resurslardan innovatsiyalar bilan birlashtirishga asoslangan. Finlyandiya tabiiy resurslar, xususan, o‘rmon va energiya resurslari, zamonaviy texnologiyalar va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan integratsiya qilingan. Bu yondashuv natijasida mamlakat raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaradi va resurslardan samarali foydalanish bilan birga yangi texnologiyalarni rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladi. Finlyandiya modelining asosiy afzalligi – resurslardan foydalanish jarayonida innovatsion salohiyatdan maksimal darajada foydalanish va ekologik barqarorlikka erishishdir [11].


Koreya modeli esa cheklangan tabiiy resurslarni yuqori texnologiyalar orqali qoplashga qaratilgan. Respublikada tabiiy resurslar norisonda va kam, shu bois iqtisodiy va ekologik samaradorlikni ta‘minlash uchun yuqori texnologiyali industriyalar va intellektual resurslardan keng foydalaniladi. Masalan, energetika, elektronika va avtomobilsozlik sohalarida resurslar minimal sarf bilan maksimal qiymat yaratadi. Bu model cheklangan resurs sharoitida barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishishning samarali mexanizmi sifatida e‘tirof etilgan [12].

SHu tariqa, xorijiy mamlakatlar tajribasi resurslarning samarali boshqaruvi, iqtisodiy qiymatni oshirish va barqaror rivojlanishni ta‘minlashda turli strategik modellarning ahamiyatini ko‘rsatadi. Kanada, Finlyandiya va Koreya modellari misolida resurslardan samarali foydalanishning turli yo‘nalishlari – qayta ishlash, innovatsiyalar va yuqori texnologiyalar – qanday qilib mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishi va ekologik xavflarni kamaytirishi ilmiy jihatdan asoslanadi. Bu tajribalar milliy modellarni shakllantirishda va uzoq muddatli resurs siyosati strategiyasini ishlab chiqishda qo‘llaniladi.

Xorijiy tajribalar asosida O‘zbekistonning hududiy tabiiy resurslarini samarali boshqarish uchun “Mintaqaviy tabiiy resurslardan samarali foydalanish modeli” taklif qilish mumkin. Bu modelning asosiy maqsadi – resurslarning iqtisodiy qiymatini

maksimallashtirish, ulardan foydalanish jarayonida ekologik xavflarni kamaytirish va hududiy rivojlanishni barqaror tarzda ta’minlashdir.

Бунда birinchi bosqich sifatida resurs salohiyati raqamli platformalar orqali to’liq inventarizatsiya qilinishi lozim. Bu jarayon yer, suv, mineral va energiya resurslarining miqdori, sifati va tarqalishi haqida aniq ma’lumotni taqdim etadi hamda ulardan samarali foydalanishni rejalashtirish imkonini beradi. Ikkinchi bosqich – resurs aylanmasiga innovatsion texnologiyalarni joriy etishdir. Bu yangi texnologiyalar orqali xom ashyodan yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va resurslardan ratsional foydalanish ta’minlanadi. Uchinchi bosqichda resurslardan foydalanishning iqtisodiy va ekologik samaradorligini baholash uchun resurslardan foydalanishning iqtisodiy va ekologik indeksini (Resource Economic and Environmental Index – REEI) joriy qilish taklif etiladi. Bu indikator hududlardagi resurs sarfi, qayta ishlash darajasi va ekologik ta’sirni bir vaqtning o’zida baholash imkonini beradi. To’rtinchi bosqichda davlat va xususiy sektor o’rtasidagi sheriklik mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Bu, birinchi navbatda, investitsiyalarni jalb qilish, klasterlar tashkil etish va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish imkonini beradi. Beshinchi bosqichda tabiiy resurslarni qayta ishlash klasterlarini tashkil etish orqali mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarish qiymati oshiriladi, ish o’rinlari yaratiladi va hududlar o’rtasida iqtisodiy samaradorlikning tengsizligi kamayadi. Oltinchi bosqich – ekologik me’yorlar va resurs taqsimotida avtomatlashtirilgan nazoratni kuchaytirishdan iborat. Bu jarayon resurslarning barqaror boshqaruvini ta’minlaydi, isrofgarchilikni kamaytiradi va davlat siyosatini samarali amalga oshirish imkonini beradi (1-rasm).



**1-rasm. Mintaqaviy tabiiy resurslardan samarali foydalanish modeli<sup>1</sup>**

SHu tarzda taklif etilayotgan model O’zbekiston mintaqalarida tabiiy resurslardan ratsional va barqaror foydalanishni ta’minlashga qaratilgan ilg’or va integratsiyalangan

yondashuv hisoblanadi. Ushbu model nafaqat iqtisodiy qiymatni oshirish, balki ekologik barqarorlik va hududiy rivojlanishni uyg'unlashtirish imkonini beradi.

### **Xulosa va takliflar**

Mintaqalarda tabiiy resurslardan samarali foydalanish mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan strategik yo'nalish hisoblanadi. Chunki tabiiy resurslar – yer, suv, mineral xomashyo va biologik zaxiralar hududlar iqtisodiy salohiyatining asosiy omillaridan biri bo'lib, ularning to'g'ri boshqarilishi milliy iqtisodiyotning o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tabiiy resurslardan samarali foydalanish, birinchi navbatda, qiymat zanjirini chuqurlashtirish, qayta ishlash hissasini oshirish va yuqori qiymatli mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantiradi. Bu esa iqtisodiy faollikni kuchaytiradi, eksport portfelini diversifikatsiya qiladi va yangi ish o'rinlari yaratadi.

SHu bilan birga, tabiiy resurslarning cheklanganligi va ekologik xavflar darajasining oshib borishi ulardan foydalanishda ratsional yondashuvni talab etmoqda. Samarali boshqaruv mexanizmi suv va yer resurslarini tejamkor tarzda ishlatish, chiqindilarni kamaytirish, ekologik standartlar va raqamli monitoringni joriy etish orqali atrof-muhitni muhofaza qilish imkonini beradi. Mintaqalar o'rtasida resurs ta'minotini mutanosiblashtirish va hududiy rivojlanishdagi asimmetriyani qisqartirish ham mamlakat barqarorligi uchun muhim hisoblanadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston mintaqalarida tabiiy resurslardan foydalanishda samaradorlikni oshirish mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi va ekologik xavfsizligi uchun ustuvor vazifadir. SHu munosabat bilan qator ilmiy-nazariy asoslangan takliflar ishlab chiqildi. Birinchi navbatda, tabiiy resurslarni hisobga olish va monitoring qilish bo'yicha yagona raqamli platformani yaratish zarur. Bunday platforma yer, suv, mineral xomashyo va bioresurslar to'g'risidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida to'plab, tahlil qilishga imkon beradi. Bu davlat boshqaruvida aniq qarorlar qabul qilish, resurslarni taqsimlashda shaffoflikni oshirish va iste'molni optimallashtirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, resurslarni qayta ishlashning yuqori qiymatli zanjirlarini kengaytirish. Xomashyoni minimal qayta ishlash bilan cheklanish milliy iqtisodiyotda qo'shimcha qiymatning pastishiga sabab bo'ladi. SHu bois, resurslarni chuqur qayta ishlash, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish strategik ahamiyatga ega.

Uchinchidan, resurslarni tejoychi texnologiyalar va “yashil” innovatsiyalarni joriy etish taklif etiladi. Bu nafaqat isrofgarchilikni kamaytiradi, balki energiya samaradorligini oshiradi va atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtiradi. Amalda “yashil energetika”, qayta tiklanadigan manbalar va raqamli boshqaruv tizimlari muhim rol o'ynaydi.

To'rtinchidan, mineral, suv va yer resurslari bo'yicha hududiy standartlarni qayta ko'rib chiqish. Standartlarni zamonaviy talablarga moslashtirish resurslardan foydalanish tizimini tartibga soladi, hududlar o'rtasida teng imkoniyatlar yaratadi va ekologik xavflarni kamaytiradi.

Beshinchidan, resurslardan foydalanishda iqtisodiy stimullar va ekologik cheklovlarni muvozanatli joriy etish nazarda tutiladi. Soliq imtiyozlari, subsidiyalar va investitsiya rag'batlantiruvchi mexanizmlar samaradorlikni oshirsa, ekologik cheklovlar resurslarning barqaror saqlanishini ta'minlaydi.

Oltinchidan, mintaqalarda resursga ixtisoslashgan klasterlar va ilmiy-tadqiqot markazlarini shakllantirishdir. Bu mahalliy sanoatni kuchaytirish, innovatsion yechimlar

yaratish, kadrlar salohiyatini oshirish va resurslardan foydalanishda ilmiy asoslangan yondashuvni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ushbu takliflar O‘zbekistonda tabiiy resurslar boshqaruvini yangi bosqichga ko‘tarib, mintaqalarning barqaror rivojlanishi uchun mustahkam zamin yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Smith, A. (1776). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London: W. Strahan and T. Cadell.; Ricardo, D. (1817). *On the Principles of Political Economy and Taxation*. London: John Murray.
2. Friedman, M., & Schwartz, A. J. (1963). *A Monetary History of the United States, 1867–1960*. Princeton: Princeton University Press.
3. Samuelson, P. A. (1954). The Pure Theory of Public Expenditure. *The Review of Economics and Statistics*, 36(4), 387–389.
4. Stiglitz, J. E. (1989). Markets, Market Failures, and Development. *American Economic Review*, 79(2), 197-203.
5. Porter, M. E. (1998). Clusters and the New Economics of Competition. *Harvard Business Review*, November–December.
6. Ostrom, E. (1990). *Governing the Commons: The Evolution of Institutions for Collective Action*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Sachs, J. D. (2015). *The Age of Sustainable Development*. New York: Columbia University Press.
8. Rahmonov, A. (2020). Hududiy resurslar samardorligi va ularni boshqarish mexanizmlari. - Tashkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi. – B. 34-58.; Xalilov, B. (2019). Ekologik cheklovlar va iqtisodiy rivojlanish: hududiy tajriba. - Tashkent: Iqtisodiyot. – B. 12-45.; Salimov, O. (2021). Resurslar iqtisodiyoti va institutsional modellar. - Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti. - B. 67-89.; Jo‘rayev, T. (2018). Hududiy rivojlanish va barqaror resurs boshqaruvi. - Tashkent: Ilm-Fan. - B. 101-130.; Yusupov, G. (2022). Iqtisodiy va ekologik omillarni hisobga olgan hududiy resurslar modeli. - Tashkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi. - B. 45-72.
9. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.
10. DeLong, D. L., Kozak, R. A., Cohen, D. H. Overview of the Canadian value-added wood products sector and the competitive factors that contribute to its success// *Canadian Journal of Forest Research*. – Kanada: 2007, № 37 (11). – pp/ 2211-2226.
11. Pülzl, H. Spaces of the forest-based bioeconomy in Finnish Lapland// *International Journal of Geography*. – Fennia: № 199 (2), 2021. – pp. 174-187.
12. Kwon, G.J., Lee, W.I. Strategic Resource Utilization for Enhancing Corporate Value: Dynamics of Exploration and Exploitation in Korea// *Sustainability*. – № 16 (11), 2024. – pp. 21-46.